# Ilm yoʻlidagi yana bir qadam

Joriy yilning 5-fevral kuni «Professional ta’lim va jismoniy madaniyat» kafedraning kengaytirilgan yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Pedagogika fanlari doktori, professor Z.K.Ismailova ilmiy raxbarligida tadqiqot olib borayotgan Sadikova Feruza Maxmudjanovnaning 13.00.05 - Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Professional ta’lim muassasalarida talabalarning kompetensiyalarni egallash boʻyicha mustaqil ishini tashkil etish metodikasi (Kasb-hunar ta’limi misolida)” mavzusidagi dissertatsiya muhokamasi boʻlib oʻtdi. Kafedra yigʻilishini pedagogika fanlari doktori, professor R.K.Choriev olib bordi.

Professional ta’lim tizimi oldida turgan vazifalar uning axborotlashuvini va ta’limning koʻp bosqichliligini, kasbiy tayyorgarlikning uzluksizligini, talabalar va oʻqituvchilarning akademik mobilligini, mustaqil ta’limning turli shakllarini tashkil etish metodikasini takomillashtirishni, uning sifatini baholash tizimining rivojlanishini ta’minlovchi yagona tizim yaratishni talab qiladi. Dissertatsiya ishida ana shunday hozirgi kunda yechimini kutayotgan qator savollarga e’tibor qaratildi. Kengaytirilgan yigʻilishda institut ilmiy boʻlimi boshligʻi B.Matyakubov, TIQXMMI Qarshi filiali professor-oʻqituvchilari,Sirojiddin Toʻrayev Qarshi muxandislik iqtisodiyot institutini oʻqituvchisi, GM fakulteti dekani va dekan muovinlari hamda stajyor-tadqiqotchi va doktorantlar ham ishtirok etdilar.

TIQXMMI matbuot xizmati